

## OYBEKNING “BOLALIK XOTIRALARIM” KITOBINING TARBIVAVIY AHAMIYATI

Tolmasbek Tillayev

Ilmiy rahbar.

Sabina Nurullayeva

Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat instituti talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10667129>

**Annotatsiya.** Dunyoda ma’naviy va marifiy hamda tarbiyaviy jihatdan o‘ta yetuk va nodir asarlar talaygina. Shu jumladan buyuk adibimiz Muso Toshmuhammad o‘g‘li Oybekning ham bu borada asarlari yuksak ma’naviyat bo‘lishi bilan bir qatorda tarbiyaviy ahamiyati ham cheksizdir. Biz tadqiq qilgan “Bolalik xotiralarim” kitobining ham yoshlarimiz tarbiyasida tutgan muhim rolini ko‘rsatib o‘tmoqchimiz.!

**Kalit so‘zlar:** “Bolalik xotiralarim”, Turg‘un, A‘zam, Qodir, Hoji, Musavoy.

### EDUCATIONAL SIGNIFICANCE OF OYBEK'S BOOK "CHILDHOOD MEMORIES"

**Abstract.** In the world, there are many very mature and rare works in terms of spiritual, educational, and educational aspects. Including the works of our great writer Musa Tashmuhammad son Oybek in this regard, besides being highly spiritual, their educational value is also unlimited. We want to show the important role of the book "My childhood memories" in the education of our youth.

**Keywords:** "My childhood memories", Turgun, Azam, Kadir, Haji, Musavoi.

### ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЕ ЗНАЧЕНИЕ КНИГИ ОЙБЕКА «ВОСПОМИНАНИЯ ДЕТСТВА»

**Аннотация.** В мире существует множество очень зрелых и редких произведений с точки зрения духовного, просветительского и просветительского аспектов. В том числе и произведения нашего великого писателя Мусы Ташмухаммада сына Ойбека в этом плане, помимо того, что они высокодуховны, их просветительская ценность также безгранична. Мы хотим показать важную роль книги «Воспоминания моего детства» в воспитании нашей молодежи.

**Ключевые слова:** «Воспоминания моего детства», Тургун, Азам, Кадир, Хаджи, Мусавой

XX asr o‘zbek adabiyotining rivojiga ulkan va bebaho hissa qo‘shgan ulug‘ adib, shoir, olim, jamoat arbobi O‘zbekiston xalq yozuvchisi Muso Toshmuhammad o‘g‘lili Oybekning o‘zbek xalqining milliyligi, o‘ziga xos mentaliteti hamda yoshlarning ma’naviy barkamol bo‘lishi va komil inson darajada tarbiya topishida yuksak darajada xizmat qiladigan nodir asarlari mavjud bo‘lib, ulardan biri uning “Bolalik xotiralarim” asaridir.[1]

Oybekning “Bolalik xotiralarim” qissasi avtobiografik xarakterda bo‘lib, uning bosh qahramoni – Musavoy, ya’ni bo‘lajak adibning o‘zidir. Qissa bola tilidan hikoya qilinadi. Undagi voqealar Oybekning bolalik xotiralaridir, lekin muallif faqat xotiralar bilan cheklanib qolmasdan, o‘sha davrning yirik voqealarini ham tasvirlaydi.

Qissa voqealari XX asrning 10-yillarida kechadi. Bu davr adibning ayni bolalik davridir. Adabiyotshunos Abdug'afur Rasulovning ta'kidlashicha, Oybek davrlarni yaxshi eslaydi. Aniqrog'i, XX asrning 10-yillari voqeligi odamlari Oybek ijodining o'q ildizidan birini belgilaydi. U "Bobom", "Bolalik xotiralarim", "Baxtigul va Sog'indiq", "Ulug' yo'l" asarlarida shu davrni tasvirlaydi. Demochimizki, Oybek ijodini o'rganganda biografik metodni zinhor unutmaslik kerak. [2]

Oybekning "Bolalik xotiralarim" qissasi estetik janrda yozilgan. Asarda bosh qahramonning biografiyasi xalq hayoti davr hodisalari ijtimoiy o'zgarishlar bilan uzviy bog'liq holda tasvirlangan. Qissada bosh qahramon Musavoyning biografiyasini hikoya qilish orqali o'sha yillardagi xalq hayotining keng haqiqiy manzarasi chizilgan. Qissa o'z uslubining mayinligi lirizmga boyligi, voqealar mantig'ining kuchliligi va izchilligi, obrazlarning aniqligi, qissa tilining ravon va jozibadorligi bilan kitobxonlarga manzur bo'ladi.

Oybek bu qissani yozish bilan birga o'zining bolalar dunyosini, kichkintoylar psixologiyasini qanchalik chuqur bilishini namoyish etadi. Chunki bu asarda bolalar xarakteri va psixologiyasining turli xil, hatto ba'zan ko'z ilg'amas darajada nozik bo'lgan murakkab tomonlari ham mohirlik bilan ochib berilgan.

Oybekning "Qutlug' qon" romani voqealari bilan "Bolalik xotiralarim" qissasi voqealari bir-biriga o'xshaydi. Adabiyotshunos olim Matyoqub Qo'shjonov ta'kidlaganidek: "Tarixdan ma'no izlashni Oybek umrining oxirigacha davom qildirdi. U o'zining "Bolalik xotiralarim" qissasida temirchi Jo'ra, Tursunlar va Yo'lchilar davriga murojaat qiladi. Bolalikda temirchi jo'rani eslatadigan kosib va hunarmandlar obrazini yaratdi."

"Bolalik xotiralarim" qissasida Turg'un, A'zam, Ahmad, Qodir, Hoji, Sobir kabi Musavoyning tengqurlari va o'rtoqlarining obrazlari ham berilgan. Ularning har biri o'z shaxsiy qiyofalariga ega. Qodir ko'rinishdan mo'min-qobilga o'xshab tuyulsa-da, ammo jahldor. Ahmad oshiqboz, tentakroq, Hoji mardikorning o'g'li quvgina, Sobir kichkina bo'lsa ham pishiqqina.

Ularning turmush tarzi turlicha. Kattaroq bolalar oshiq, chillak o'ynaydilar, kichik bolalar esa tol novdalaridan ot qilib minadilar. Bu borada Turg'un obrazi fe'l-atvoridagi sergaplik, toqatsizlik, shartakilik bilan birmuncha ajralib turadi.

Oybek o'sha davr tashvishlari bolalar hayoti va taqdirida ham ma'lum darajada aks etganligini mahorat bilan tasvirlaydi. Ushbu go'zal asari bila keng kitobxonlar qalbini zabt etgan adib nafaqat katta yoshli kitobxonlar balki beg'ubor bolalar qalbini ham ushbu betakror durdonasi bilan zabt etishga muvaffaq bo'ldi.

Ushbu asarda butun dunyo bolalarining beg'uborligi, o'zbek xalqining bolalari turmush tarzi, ularning kechinmalari hamda bolalarimiz milliy o'yinlar haqida ham batafsil so'z yuritiladi.[3]

### **Xulosa**

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki "Bolalik xotiralarim" qissasi XX asrdagi eng chiroyli asarlardan biridir. U o'sha davrning kamtarin va achinarli qishloq hayoti-yu bolalarning quvnoqligi, ularning turmush tarzi-yu, kundalik hayoti, o'zbek bolalarining milliy o'yinlari haqida ham batafsil so'z yuritilgan. Shu bilan birga ota-onalarning bolalar hayotidagi o'rni ham chiroyli tarzda yoritib berilgan.

#### REFERENCES

1. <https://kitoblardunyosi.uz/oybek-bolalik-xotiralarim>
2. Muso Toshmuhammad o'g'li. "Bolalik" (qissa). Toshkent. 1969.
3. <https://malumot.ru/muso-toshmuhammad-o%CA%BBg%CA%BBli-oybek/>